

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
KOMPYUTER INJINIRINGI FAKULTETI**

AMALIY DASTURIY PAKETLAR

O‘quv qo‘llanma

**5330500 – Kompyuter injiniringi («Kompyuter injiniringi»,
«AT-servisi», «Multimedia texnologiyalari»)
yo‘nalishi talabalari uchun**

Toshkent 2018

UO‘K: 004 (45)

Mualiflar: R.N.Usmanov, V.S.Xamidov, K.T.Abdurashidova, D.N.Xabirova.
«Amaliy dasturiy paketlar»/ TATU. 140 bet. Toshkent, 2018.

ISBN 978–9943–5144–9–40

Ushbu o‘quv qo‘llanmada amaliy dasturiy paketlarga oid asosiy tushunchalar, amaliy dasturiy paket dasturlarini (Matlab, MathCad) ishga tushirish, ularning interfeysi va yordam tizimini o‘rganish, sonlar, vektorlar hamda matritsalar ustida amallar bajarish, matritsalarining asosiy karakteristikalarini hisoblash, chiziqli algebraik tenglamalar sistemalarini tadqiq etish, yechish, ikki va uch o‘lchovli grafiklar qurish, grafiklar xususiyatlarini boshqarish hamda rasmiylashtirish, ko‘pxadlar ustida amallar bajarish, bir va ikki o‘lchovli funksiyalar uchun approksimatsiya hamda interpolyatsiya masalalarni yechish, dasturiy paket dasturlari orqali dasturlar yaratish kabi mavzularni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Учебное пособие посвящено к изучению тем по основным концепциям пакетов прикладных программ, запуску прикладных пакетов программного обеспечения (Matlab, MathCad), изучению их интерфейса и справочной системы, выполнению операций с числами, векторами и матрицами, вычислению основных характеристик матриц, исследованию и решению систем линейных алгебраических уравнений, построению двухмерных и трехмерных графиков, управлению графическими свойствами, выполнению операций над многочленами, решению задач аппроксимации и интерполяции для одномерных и двумерных функций, созданию программ на базе программного обеспечения пакетов прикладных программ.

The manual is devoted to studying themes according to the main concepts of application program packages, start of applied software packages (Matlab, Mathcad), to studying of their interface and help system, execution of operations with numbers, vectors and matrixes, calculation of the main characteristics of matrixes, research and a solution of systems of the linear algebraic equations, creation of two-dimensional and three-dimensional diagrams, management of graphic properties, execution of operations over polynomials, to a solution of problems of approximation and interpolation for one-dimensional and two-dimensional functions, to creation of programs on the basis of the software of application program packages.

Taqrizchilar:

S.X. Xushvaqtoev - “GIDROINGIO Instituti” Geoaxborot tizimlari laboratoriya mudiri, dotsent, t.f.n.

M.B. Zaynutdinova - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, «Axborot texnologiyalari» kafedrasida dotsenti, t.f.n.

ISBN 978–9943–5144–9–40

© Muhammad al-xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, «Aloqachi» nashriyoti, 2018.

KIRISH

Ushbu o‘quv qo‘llanmasi «Amaliy dasturiy paketlar» faniga tegishli bo‘lgan ilm-texnika va ishlab chiqarishda uchraydigan tizimlarni modellari, ularni matematik tasnifi va modellashtirish vositalari bo‘lmish kompyuter amaliy matematik dasturiy paketlarini (MATLAB, MAPLE va boshqalar), tarixi va rivojlanish tendentsiyasi, dinamik jarayonlarni modellashtirish, tahlillash va dasturlash, shuningdek inson faoliyatining xilma xil sohalariga tegishli xar xil amaliy masalalarni MATLAB paketi yordamida yechish masalarini qamrab olgan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan mavzular bo‘yicha talabalarga yetkazilishi shart bo‘lgan bilimlar va ko‘nikmalar to‘la qamrab olgan.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining xozirgi paytdagi tutgan o‘rni nuqtai nazaridan, «Amaliy dasturiy paketlar» fani kompyuter injiniringi bakalavriat yo‘nalishi talabalari uchun o‘rgatilishi kerak bo‘lgan asosiy fanlardan biriga aylandi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda kompyuterning dasturiy ta’minoti, tizimli dasturiy ta’minoti, amaliy dasturiy ta’minoti, instrumental vositalari, axborot tizimdagi jarayonlar, axborot tizimlarining turlariga mos holda tanlash usullari bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga axborot tizimlarning turlari, amaliy dasturiy paketlarni (ADP) qo‘llash sohalari, amaliy dastur paketlari kengaytmalari, ADP larning kompyuter operatsion tizimi bilan bog‘lanishi, operatsion tizimlarning turlarini tanlab foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

Yaqin kungacha foydalanuvchi o‘zining matematik masalasini yechish uchun nafaqat matematikani bilishi balki kompyuterda ishlashni, kamida bitta dasturlash tilini bilishi va murakkab hisoblash usullarini o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak bo‘lar edi. Hozirda esa dasturlashni bila olmaydigan yoki xohlamaydiganlar uchun tayyor ilmiy dasturlar majmualari, elektron qo‘llanmalar va tipik hisob-kitoblarni bajarishga mo‘ljallangan dasturiy vositalar bo‘lgan – amaliy dasturiy paketlar (ADP) mavjud.

Bu paketlar foydalanuvchi uchun kerakli bo‘lgan barcha ishni yoki ishning asosiy kerakli qismini bajarish imkonini beradi: muammoni tadqiq qilish (analitik shaklida ham); ma’lumotlarning tahlili; yechim

mavjudligini tekshirish; modellashtirish; optimallashtirish; grafiklarni qurish; natijalarni hujjatlashtirish va shakllantirish; taqdimotlarni yaratish kabi masalalardir.

Mazkur o'quv qo'llanma, Matlabni ishga tushirish, Matlab interfeysi va yordam tizimini o'rganish, Matlab tizimida sonlar, vektorlar va matritsalar ustida amallar bajarish, matritsalarining asosiy karakteristikalarini hisoblash, chiziqli algebraik tenglamalar sistemalarini tadqiq etish va yechish, Matlab tizimida ikki va uch o'lchovli grafiklar qurish, grafiklar xususiyatlarini boshqarish va rasmiylashtirish, ko'pxadlar ustida amallar bajarish, bir va ikki o'lchovli funksiyalar uchun approksimatsiya va interpolatsiya masalalarini yechish, Matlab muhitida dasturlar yaratish kabi mavzularni o'rganishga bag'ishlangan.

I BOB. AMALIY DASTURIY PAKETLAR HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI

1.1. Mavjud amaliy dasturiy paketlar tahlili va ularning vazifalari

Hisoblash texnikasini amaliyotda samarali tadbiiq etishning shartlaridan biri amaliy dasturlarning ixtisoslashtirilgan paketlarini yaratishdir. Ularga kirishning osonligi va foydalanishning soddaligi EHMning muhandislik mehnatiga, ilmiy soha, iqtisodiyot, madaniyat, ta'limning aniq vazifalarini yechishda kengroq tadbiiq etish uchun sharoitlar yaratadi.

Amaliy dasturlar paketlari (ADP) odatda mahsus tizimlar asosida quriladi va u bundan keyingi aniq yo'nalishda rivojlanadi. Ular hisoblash vositalarining dasturiy ta'minlanishida alohida yetkazib beriladi, o'zining hujjatlariga ega va operatsion tizimlarning tarkibiga kirmaydi. Ko'pgina paketlar integratsiyaning shaxsiy vositalariga ega. Paketni ishlab chiqish operatsion tizimning zamonaviylashtirilishini talab qilmasligi kerak. Bu boshqaruvchi dasturlarning ishiga ham tegishlidir. Barcha ADPlarni uch guruhga bo'lish mumkin: operatsion tizimlar imkoniyatlarini kengaytiruvchi paketlar; umumiy belgilanishdagi paketlar; ADPda ishlashga mo'ljallangan paketlar. Operatsion tizimlar imkoniyatlarini kengaytiruvchi paketlar turli xil konfiguratsiyalarga ega EHMlarning faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Ularga namunaviy konfiguratsiyalarga ega ko'p mashinali majmualar, dialogli tizimlar, vaqtning real ko'lamida ishlash uchun tizimlar, uzoqlashtirilgan paketli ishlab chiqish ishini ta'minlovchi paketlar kiradi. Umumiy belgilanishdagi amaliy dasturlar paketlari qo'llanishlarning quyidagi keng doirasi uchun dasturlar majmuini o'z ichiga oladi: alfavit-raqamlimashina matematikasini ADP yordamida o'rganish foydalanuvchida matematikaning o'zini o'rganish illyuziyasini yaratadi. Ammo shuni aytish joizki, mazkur paketlarda yaratilgan har qanday chiroyli menyu foydalanuvchini oddiy matematik tushunchalardan va usullardan uni ozod qila olmaydi. Xususan, agar foydalanuvchi matritsa nimaligini bilmasa, u holda matritsa algebrasi dasturiy paketi unga hech qanday yordam bera olmaydi yoki foydalanuvchi noaniq bo'lmagan integralni sonli usullar yordamida hisoblashga uringanda, u haqiqatdan ancha yiroq bo'lgan javobni olishi yoki javobni umuman ololmasligi ham mumkin. Ixtiyoriy keng

imkoniyatlarga ega paket universal yondashishga bog'liq. Matematik paketlarni ishlatishda mutaxassis undan ongli foydalanib chegirmalar qilishi mumkin: paketni uning muammosiga rostlashi, dasturni modifikatsiyalash, yangilash, hisoblash vaqtini tejash va h.k.

Hozirgi kunda kompyuter algebrasining nisbatan imkoniyatli paketlari bu - Mathematica, Maple, Matlab, MathCAD, Derive va Scientific WorkPlace. Bulardan birinchi ikkitasi professional matematiklar uchun mo'ljallangan bo'lib imkoniyatlarning boyligi, ishlatishda murakkabligi bilan ajralib turadi.

MatLab matritsalar bilan ishlashga va signallarni avtomatik boshqarish hamda qayta ishlashga mo'ljallangan.

MathCAD va Derive qo'llanilishi juda oson bo'lib talabalarning tipik talablarini qondirishni ta'minlaydi. Bular qatoriga Eureka paketini qam qo'shish mumkin.

Scientific WorkPlace matematik qo'lyozmalarni LATEX tizimidan foydalangan holda tayyorlashga mo'ljallangan bo'lib, bir paytda analitik va sonli amallarni bajarishi mumkin.

Matlab hozirda fan va texnikaning ko'plab sohalarida interfaol muhitda matematik hisoblashlarni avtomatlashtirishning samarali vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda.

Matlab tizimi matritsalar ustida ish olib borishga asoslangan bo'lib, bunday yondashuv ma'lumotlarga ishlov berish jarayonini mahsus dastur tuzmasdan amalga oshirish imkonini beradi. Shu sababli, Matlab tizimi Matrix Laboratory deb nomlangan. Shuningdek, Matlab tarkibiga 900 dan ortiq vazifalarni yechishga mo'ljallangan funksiyalar kiradi. Matlab tizimini kengaytirish ustida dunyoning matematika, dasturlash va mahsus yo'nalishlar bo'yicha ish olib boruvchi yirik markazlari ish olib borishmoqda. Matlabning yana bir ajoyib xususiyati, uning doirasida dasturlar yaratishga imkon beruvchi yuqori darajali algoritmik tilidir.

Matlab dasturiy muhitida blokli modellashtirishni amalga oshirish imkonini beruvchi Simulink tizimi mavjud bo'lib, mazkur tizim asosida signallarga raqamli ishlov berish protsessorlarida ishlovchi dasturlar yaratish imkoniyati berilgan.

Dasturiy ta'minot deganda, hisoblash texnikasi vositalari bilan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini yaratish va ulardan foydalanish uchun dasturiy va xujjatli vositalarni jamlash tushuniladi.

Dasturiy ta'minot tomonidan bajariladigan funksiyalarga bog'lik holda, uni ikki guruh: tizimli dasturiy ta'minot va amaliy dasturiy ta'minotga bo'lish mumkin.

Tizimli DT kompyuterda axborotni qayta ishlash jarayonini tashkil etadi va amaliy dasturlar uchun me'yordagi ish muhitini ta'minlaydi. Tizimli DT apparat vositalari bilan shu qadar yaqin aloqadagi, uni ba'zida kompyuterning bir qismi deb ham hisoblashadi.

Amaliy DT foydalanuvchining aniq vazifalarini hal etish va umuman axborot tizimining hisoblash jarayonini tashkil etish uchun mo'ljallangan.

Dasturlashtirish tili translyatori deb dasturlashtirish tilidan (odatda) mashina kodiga dastur matnini tarjima qilishni amalga oshiruvchi dasturga aytiladi.

Dasturlashtirishning kirish tili, translyator, mashina tili, standart dasturlar kutubxonasi, translyatsiya qilingan dasturlarni sozlash va bir butunlikka jamlash vositalarini o'z ichiga olgan vositalar majmui **dasturlashtirish tizimi** deb ataladi. Dasturlashtirish tizimida translyator dasturlashtirishning kirish tilida yozilgan dasturni aniq bir shaxsiy kompyuterning mashina buyrug'i tiliga tarjima qiladi. Kirish tilidan tarjima qilish usuliga bog'liq holda translyatorlar kompilyator va interpretatorlarga bo'linadi.

1.2. Amaliy dasturlar. Ularni ko'rinishi

Amaliy dasturiy ta'minot foydalanuvchining aniq bir vazifalarini ishlab chiqish va bajarish uchun mo'ljallangan.

Amaliy dasturiy ta'minot tizimli DT, xususan, operatsion tizimlar boshqariluvchi ostida ishlaydi. Amaliy DT tarkibiga quyidagilar kiradi:

- turli vazifalardagi amaliy dasturlar paketlari;
- foydalanuvchi va AT umumiy ish dasturlari.

Amaliy dasturlar paketlari (ADP) - foydalanuvchi hal etayotgan vazifalarni avtomatlashtirishning kuchli qurolidir, u axborotni ishlash bo'yicha biror ishni qanday bajarayotganini bilish zaruriyatidan amalda to'liq ozod etadi.

Hozirgi paytda o'z funksional imkoniyatlari va amalga oshirish usullariga ko'ra farqlanuvchi ADPning keng spektri mavjud.

Amaliy dasturlar paketi (ADP) - bu muayyan sinf vazifalarini hal etish uchun mo'ljallangan dasturlar majmuidir.

ADPning quyidagi turlari farqlanadi:

- umumiy vazifadagi (universal);
- uslubiy yo'naltirilgan;
- global tarmoq;
- hisoblash jarayoni tashkilotlari.

Umumiy vazifadagi ADP - foydalanuvchi va umuman axborot tizimi funksional vazifalarni ishlab chiqarish va foydalanishni avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan.

Bu ADP sinfiga quyidagilar oiddir:

- matnli va grafik muxarrirlar;
- elektron jadvallar;
- ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT).

Tayanch iboralar:

DT - dasturiy ta'minot.

OT - operatsion tizimlar.

Utilitlar - foydalanuvchi uchun qo'shimcha xizmatlar ko'rsatuvchi programmalar.

Translyator - mashina kodiga dasturlash tilidan o'giruvchi programmaga aytiladi.

ADP - Amaliy dasturlar paketi.

II BOB. MATLAB AMALIY DASTUR PAKETI

2.1. MATLAB amaliy dastur paketi va uning asosiy imkoniyatlari

MATLAB tizimi fan va texnikaning ixtiyoriy sohasi modellashtirish masalalarini yechishga imkon beruvchi interfaol tizimdir. Odatda **MATLAB** matematik hisoblashlarni avtomatlashtirish tizimi sifatida qaraladi. **MATLAB** tizimi AQSh ning **The MathWorks, Inc.**, kompaniyasi tomonidan 20-asrning 80-yillarida ishlab chiqilgan. **MATLAB** to'g'risidagi ma'lumotlarni www.mathworks.com, www.matlab.ru, www.exponenta.ru, www.softline.ru saytlaridan olish mumkin.

Matlab bu:

- Matematik algoritmlarni yaratish.
- modellashtirish
- tahlil qilish
- ma'lumotlarga ishlov berish
- dastur grafikasi bilan ishlash
- GUI ilovalarini ishlab chiqish

kabilar dastur paketlarning umumiy sonini belgilab beradi.

Matlabda paketlar to'plami

• Tizimning qo'shimcha pog'onasini toolbox kengaytmalar paketi tashkil etadi

• U tizimni turli sohalardagi masalalarni yechishga yo'naltirish imkoniyatini beradi. Bunday sohalarga misol tariqasida

- Matematikaning mahsus bo'limlari ,
- fizika va astronomiya,
- telekommunikatsiya vositalari, matematik modellashtirish,
- hodisaviy boshqariluvchi tizimlarini loyihalash va boshqa sohalarni keltirish mumkin.


Xulosa qilib aytganda, **MATLAB** foydalanuvchilarning masalalarini yechish uchun yuqori darajadagi moslashuvchanlikka ega.

Matlabni besh qismlarga ajratash mumkin:

1. Matlab tili.
2. Matlab muhiti.
3. Mahsus boshqarish .
4. Matematik vazifalar kutubxonasi.

5. Dastur interfeysi .

6.C va Paskal kabi ob'ektga yo'naltirilgan dasturlarni ajralmas vazifalari sifatida katta to'plamni o'z ichiga oladi. Kengaytiriladigan foydalanuvchilardan foydalanish imkonini beradi.



2.1-rasm. Matlab muhiti

MATLAB tizimi o'zining yuqori darajadagi dasturlash tiliga egadir. Ma'lumotlarning matritsa ko'rinishida berilishi va yuqori imkoniyatli mahsusfunksiyalarining mavjudligi sababli **MATLAB** tizimining dasturlash tilini juda yuqori darajadagi algoritmik til sifatida e'tirof etiladi.

MATLAB tizimi to'rtta dasturiy komponentlardan tashkil topgan. Ular **MATLAB**, **Simulink**, **Toolbox**, **Blockset** tizimlaridir. **MATLAB** komponenti tizim yadrosidir, **Simulink** blokli modellashtirishga imkon beruvchi komponenta, **Toolbox**, **Blockset** lar esa **MATLAB** va C **MATLAB** tizimini o'rnatish juda oson bo'lib bunda foydalanuvchi o'ziga kerakli paketlardan foydalanishi, ya'ni ulardan o'ziga kerakli paketlar tizimini hosil qilishi mumkin.

MATLAB tizimi o'rnatilganda **Ishchi stolda MATLAB** tizimining uch o'lchovli grafik ko'rinishidagi belgisi hosil bo'ladi. **MATLAB** tizimini ishga tushirish uchun ana shu belgiga sichqonchani bosish yetarli.

MATLAB interfeysi.

MATLAB interfeysini quyidagi oynalar tashkil etadi.

- **Command Window**(Buyruqlar oynasi) – **asosiy oyna**
- **Command History** (Buyruqlar tarixi)
- **Current Directory**(Joriy papka)
- **Workspace**(Xotiraning ishchi sohasi)
- **Command Window** (buyruqlar oynasi) – MATLAB interaktiv tizimining asosiy oynasi bo‘lib, bunda foydalanuvchi “savol beradi”, tizim esa “javob beradi”.

Bunda quyidagi hollarga to‘xtalamiz:


1. Tizimning “savolni qabul qilishga tayyor” ekanligi belgisi qator boshidagi >> belgisi hisoblanadi.

2. Foydalanuvchi “savol beradi” (matnni kiritadi) va Enter tugmasini bosadi.

- **Command History** (buyruqdar tarixi) – bu oynada “avvalgi savollar”, jumladan xatolari ro‘yhati keltiriladi. MATLAB ni ishga tushirishda va ishlash jarayonida avval berilgan “savollar”ni qaytarish mumkin, buning uchun Command History oynasida kerakli “savol” ustida sichqonchani ikki marta chertish etarli. Shuningdek, “savol” yoki “savollar”ni Command Window ga o‘tkazish mumkin.

- **Current Directory** (joriy papka) – bu oynada MATLAB instrumentlar oynasi panelida Current Directory ning ochiladigan ro‘yhatida ko‘rsatilgan papkaning ichidagilar ko‘rsatiladi.

- **Workspace** (xotiraning ishchi sohasi) – bu oynada MATLAB dan chiqishgacha bo‘lgan va Workspace ishchi xotirasida saqlanayotgan joriy o‘zgaruvchilar ro‘yhati ko‘rsatiladi.



2.2 -rasm. MATLAB oynasi.

MATLAB oynasi menyusidan buyruqlar vazifasi:

- File (fayl) – foydalanuvchining fayllari bilan ishlashga yo‘naltirilgan;
- Graphics (grafik) – joriy grafik oynasida grafik imkoniyatlardan foydalanishga yo‘naltirilgan;
- View (Vid) - Workspace xotirasi sohasi ichidagilarni ko‘rishga mo‘ljallangan;
- Debug (sozlash) – dasturlash rejimida ishlashga mo‘ljallangan buyruqlar;
- Desktop (stol) – MATLAB oynalarini tashkil qilishga mo‘ljallangan buyruqlar;
- Window (oyna) – tez faollashtiriladigan ochiq oynalar ro‘yhati;
- Help (yordam) – MATLAB ning yordam tizimiga murojaat qilishga mo‘ljallangan.

MATLAB ning yordam tizimi. MATLAB ning yordam tizimi foydalanuvchilarga quyidagi yordam vositalaridan foydalanish imkonini beradi:

- Elektron ma'lumot tizimlari;
- Namoyish misollari.

MATLAB ning yordam tizimiga help buyrug'i yordamida murojaat qilinadi. Bu buyruqning formati:

Help <qidirilayotgan ma'lumot> ,

Bu yerda <qidirilayotgan ma'lumot> - MATLAB ob'ektining standart nomi: buyruqlar, funksiyalar.

MATLAB ning ixtiyoriy funksiyasi haqida ma'lumot olish uchun help <funksiya nomi>buyrug'i yoziladi. Masalan, help sin buyrug'i Sin(x) funksiyasi haqida ma'lumot beradi.

Barcha papkalar ro'yhati qisqacha help buyrug'i yordamida beriladi.

Matlab -tili ob'ektlar, matritsalar bilan ishlash uchun mo'ljallangan.

Matlabning asosiy ob'ekti – matritsa, indeks nomeri (1x1) - matritsa hajmi hisoblanadi, matritsalaridan foydalanish juda oson, dasturiy yozuvlar undagi formulalar qisqa va tushunarli bo'ladi. Matlab,matritsa algebraik ifodalar va dasturlash bilan tanishishni ta'minlab beradi.

MATLAB tizimining matematik apparati matritsalarini qayta ishlashga asoslangan. Bu esa mazkur tizimning dastur tuzmasdan ma'lumotlarga ishlov berish imkonini yaratishga asoslangan alohida belgisi va xususiyatidir. MATLAB ning nomi, ya'ni MATrix LABoratory ham ana shunga asoslangan. MATLAB ning ya'na bir yuqori imkoniyati uning turli maqsadlarga mo'ljallangan mahsusfunksiyalari, jumladan natijalarni grafik ko'inishda vizuallashtirishga imkon beruvchi mahsusfunksiyalari bibliotekasi bo'lib hisoblanadi. MATLAB tizimini foydalanuvchi o'z funksiyalari bilan ham to'ldirishi mumkin. Bu masalada, ya'ni MATLAB tizimini kengaytirishga dunyoning matematika, dasturlash va mahsus sohalar bo'yicha yirik ilmiy markazlari ish olib bormoqdalar.

Raqamlar:

- Matritsalar uchun asosiy tayanch turi
- -IEEE Long (double) da saqlangan standart format
- Berilgan nuqta + 308 308 taxminan
- 10E - 10e Intervalda

- $2.4e7 + 3.005i$: Kompleks raqamlari o'chadigan i yoki j (hayoliy birligi) asosida qurilgan.

Argumentlar va ifoda:

- Tayinlash operatori yordamida foydalanuvchi tomonidan belgilangan parametrlarga: $x = 5$.

- Chap tomonida - o'zgaruvchan nomi katta va kichik harflar bilan farq qiladi. $= Y (2 - x) / (x + 3)$: tayinlash operatorining o'ng tomon ifodasini o'zgartirmaydi.

- Ifodada tayinlash operatori topilgan bo'lsa, uning qiymati hisoblanib va o'zgaruvchan ans (javob uchun) tizimida joylashtirilgan bo'ladi.

- Ans o'zgaruvchisi orqali yangi iboralarni aniqlashi uchun foydalanish mumkin : $z = ans * 3$.

"; " Agar tayinlash operatori bajarish bo'lsa ramzi, natija takrorlanishi emas; aks holda - ekranda ko'rsatiladi:



```
Command Window
>> a=2*3
a =
     6
>> b=a/7;
>> b
b =
    0.8571
>> |
```

2.3 -rasm. Oddiy amal bajarilishi.

Operatorlar:

- Iboralarni to'plash operatori tomonidan foydalanish mumkin:
- + qo'shish
- - ayirish
- * ko'paytirish
- / bo'lish
- ^ darajaga ko'tarish

2.1-jadval. Relational operatsiyalar

<	dan kichik
---	------------

<=	kichik yoki teng
>	katta
>=	katta yoki teng
==	teng
~=	teng emas

2.2-jadval.Mantiqiy operatsiyalar

&	va
	yoki
~	bunday emas
0 – yolg'on(false) 1 – rost(true)	
Arifmetik operatsiyalar va munosabatlar nisbatan ustuvor pastroq	
&	va
	yoki
~	bunday emas
0 – yolg'on(false) 1 – rost(true)	
Arifmetik operatsiyalar va munosabatlar nisbatan ustuvor pastroq	

Ish maydoni (ish maydoni)

- Barcha o'zgaruvchilar RPda saqlanadi, ba'zan bu joy talab qiladi. Buyruq orqali RPdagi mavjud o'zgaruvchilar ro'yhatini ko'rish mumkin:

```

Command Window
>> who

Your variables are:

Result      b      is_treug
a           c      res

```

2.4 -rasm. O‘zgaruvchilar ro‘yhatini ko‘rish

- O‘zgaruvchilar haqida batafsil ma’lumot RP jadvalida olingan bo‘lishi mumkin
- whos:

```

Command Window
>> whos
Name          Size          Bytes  Class

Result        1x1            8  double array
a              1x1            8  double array
b              1x1            8  double array
c              1x1            8  double array
is_treug      1x1            1  logical array
res           1x1            8  double array

Grand total is 6 elements using 41 bytes

```

2.5 -rasm. O‘zgaruvchilar haqida batafsil ma’lumot.

Saqlanadigan buyruq:

- save – faylida barcha o‘zgaruvchilarni saqlaydi *matlab.mat*;
- save filename – faylida barcha o‘zgaruvchilar saqlaydi *filename*;
- save filename x y z – suratida o‘zgaruvchilar x, y, z saqlaydi *filename* (maska bo‘yicha: a*);
- save filename x y z -ASCII – saqlaydi o‘zgaruvchilar x a jadval shaklida fayl nomi uchun , y, z;
- save('filename', 'a','b','-ASCII') – qo‘ng‘iroq buyrug‘i protsessual shakli Parametrlar - satrlari shaklida (bir chiqib ketish);
- bu va boshqa har qanday buyruq Matlab haqida qo‘shimcha ma’lumot bering help <buyruq nomi >yoki F1.


Buyruqni yuklash:

- bundan oldin saqlangan ma’lumotlarni yuklash uchun ishlatiladi;
- load – fayldan barcha o‘zgaruvchilar yuklaydi *matlab.mat*;
- load filename – fayldan barcha o‘zgaruvchilar yuklanadi *filename*;
- load filename x y z – fayl o‘zgaruvchilarni x, y, z yuklaydi *filename*;

• `load -ASCII filename x y z`– matn fayli o‘zgaruvchilar `x`, `y`, `z` yuklaydi `filename load('filename', 'a','b','-ASCII')` – qo‘ng‘iroq buyruq protsessual shakli.

Buyruqni tozalash:

- `RP` dan o‘zgaruvchilar olib tashlash uchun xizmat qiladi;
- `clear` – barcha o‘zgaruvchilar tozalanadi;
- `clear all` – shunday qilib, sinflar, funksiyalari, olingan fayllar va shu jumladan, har bir narsani, o‘chiriladi. `clear x y z` – o‘zgaruvchilar `x`, `y` va `z` ni olib tashlanadi.



2.6-rasm.Ishchi katalog ko‘rinishi

Nazorat savollari:

1. Matlab tizimi va uni ishga tushirish qanday amalga oshiriladi?
2. Matlab tizimida ishlash rejimlari qanday?
3. Matlabning oynalari va ularning vazifalari tushuntirib bering.
4. Matlabning ob'yektlarini sanab bering.

2.2. MATLAB dasturining matematik hisoblash imkoniyatlari

Matlab tizimi ham boshqa dasturlash tillari kabi matematik ifodalarda foydalanish imkoniga ega.

Matlabda ifodalarning o‘zgaruvchilari matrisa deb qabul qilinadi. Ifodalarning quyidagi turlari mavjud:

- arifmetik;
- mantiqiy;
- belgili.

O‘zgaruvchilar ham

- oddiy o‘zgaruvchi;
- massiv;
- sonli;
- sonli bo‘lmagan turlarga bo‘linadi.

Ifodaning asosiy tashkil etuvchilari quyidagilar:

- o‘zgaruvchilar;
- sonlar;
- operatorlar;
- funksiyalar.

O‘zgaruvchilar. Matlabda o‘zgaruvchi turi tushunchasi mavjud emas. O‘zgaruvchi nomi yani identifikator harflar, sonlar va belgilardan iborat bo‘ladi. Bosh harf bilan kichik harflar farqlanadi.

Sonlar. Matlab hisoblashlarda o‘nlik sanoq tizimini ishlatadi. Ifodalarda oddiy arifmetik ifodalardan foydalaniladi.

- + qo‘shish
- ayirish
- * ko‘paytirish
- / bo‘lish
- \ teskari bo‘lish
- ^ darajaga ko‘tarish

2.3-jadval.Funksiya va operatsiyalar sintaksisi

Funksiyava operatsiyalar sintaksisi	
Matematik sintaksis	Dastur sintaksisi

Misol.

>> 8\2 ans = 0.2500


>> 8/2 ans = 4

Funksiyalar. Matlabda *abs*, *sqrt*, *exp*, *sin*kabi ko‘plab elementar funksiyalar mavjud. Bundan tashqari Matlabda Gamma, Besselya kabi murakkab funksiyalar ham mavjud. Bu funksiyalarning ko‘pchiligi kompleks argumentga ega. Bunday murakkab funksiyalar ro‘yhatini ko‘rish uchun quyidagini kiriting:

help specfun help elmat:

Quyida o‘zgarmaslarning qiymatlari keltirilgan:

2.4-jadval.O‘zgarmaslarning qiymatlari

<p>pi - pi soni; Inf – cheksizlik; -Inf – minus cheksizlik; NaN(Not a Number) - Son emas.</p>	 <pre> Command Window >> 5/0 Warning: Divide by zero. ans = Inf >> -5/0 Warning: Divide by zero. ans = -Inf >> 0/0 Warning: Divide by zero. ans = NaN </pre>
---	---

Quyida asosiy funksiyalar keltirilgan:

2.5-jadval. Asosiy funksiyalar

Sonli funksiyalar	
Funksiya	Funksiyaning sintaksisi
format short	Sonlar ketma-ketligini qisqartirilgan formatda formallashtiradi
format rat	Sonlar ketma-ketligining yaqinlashuvchi qiymati
format long	Sonlar ketma-ketligining barchasini oladi
sqrt(x)	Ildizdan chiqrish
pow2(x)	2 ni x darjaga ko'taradi
pi	Pi ning qiymatini beradi
fix(x)	Kasr qismini oladi
primes(x)	x gacha bo'lgan sonlar qatorini chiqaradi
rat(x)	x ni kasr ko'rinishda chiqaradi
factorial(x)	x faktorialni hisoblaydi
abs(x)	Modulga olish
inf	Cheksizlik
NaN	aniqmaslik 0/0 yoki ∞/∞

2.6-jadval. Trigonometrik funksiya elementlari

sin	acot	atanh
cos	sinh	acoth
tan	cosh	sind
cot	tanh	cosd
asin	coth	tand
acos	asinh	cotd
atan	acosh	

2.7-jadval. Kompleks sonlar

Funksiya	Funksiyaning sintaksisi
----------	-------------------------

abs (z)	kompleks sonning modulini olish
angle(z)	kompleks sonning fazasini olish
real(z)	haqiqiy son z
imag(z)	mavhum son z
conj(z)	kompleks z sonni hisoblash
complex(a,b)	kompleks son a+ib ni hisoblash
isreal(z)	orqaga qaytish, agar z –haqiqiy bo‘lsa.

Kompleks sonni yozish sintaksisi

>> 3+5i

>> 5-2i

Quyida bazi ifodalarning matlabda ishlatilishi keltirilgan:

rho = (1+sqrt(5))/2

rho =

1.6180

a = abs(3+4i)

a =

5

z = sqrt(besselk(4/3,rho-i))

z =

0.3730 + 0.3214i

huge = exp(log(realmax))

huge= 1.7977e+308

toobig = pi*huge

toobig = Inf

2.8-jadval. Son qiymatlarni yaxlitlash bloki.

Funksiya	Funksiyaning sintaksisi
fix	kasr qismini tashlab yuborish yo‘li bilan yaxlitlash;
floor	kichik eng yaqin butun songacha yaxlitlash;
ceil	katta eng yaqin butun songacha yaxlitlash;
round	eng yaqin butun songacha yaxlitlash;
mod(x,y)	birinchi kirish signalini ikkinchisiga bo‘lishdan qoladigan qoldiqni ishorani hisobga olgan holda hisoblaydi;
rem(x,y)	birinchi kirish signalini ikkinchisiga bo‘lishdan qoladigan qoldiqni hisoblaydi.

2.9-jadval. Matritsa ustida bajariluvchi funksiyalar.

Matritsa ustida bajariluvchi funksiyalar	
zeros(m, n)	Nolli matritsa hosil qiladi
eye(m, n)	Birlik matritsa hosil qilsih
rand(m, n)	0,1 oraliqdagi sondan iborat tasodifiy matrisa hosil qiladi
hadamard(n)	Nxn o'lchamdagi Adamar matrisa hosil qilish
hild(n)	Nxn o'lchamdagi Gilbert matrisa hosil qilish
invhild(n)	nxn o'lchamdagi teskari Gilbert matritsa
tril(A)	Pastki uchburchak matritsani tanlash
triu(A)	Yuqori uchburchak matritsani tanlash
diag(A,n)	Diagonal matrisa
inv(A)	Teskari matrisa
det(A)	Aniqllovchi
sum(A)	Ustun bo'yicha barcha elementlar yig'indisi
mean(A)	Matritsa ustuni o'rtacha qiymati
std(A)	Matritsaning o'rta kvadratik og'ishi
sort(A)	O'sish tartibida joylashtirish

Massivga topshiriq:

$a = [-3 \ 4 \ 2];$

$a = [-3, 4, 2];$

Chegarasi:

$b = -3: 2$ ($b = -3 \ -2 \ -1 \ 0 \ 1 \ 2$)

$b = -3:2:5$ ($b = -3 \ -1 \ 1 \ 3 \ 5$)

Elementlarga kirish: $a(3)$ (bir xil 2)

Elementlarni o'zgartirish: $a(3) = 1$

Massiv elementlarining ifodalanishi: $length(a)$ (bir xil 3)

Massiv elementlariga qo'shish



$a(4) = 5;$

$a = [a \ 5]$


Massivni o'chirish (bo'sh massiv)

$a = []$

2.10-jadval.Ikki o'lchovli massiv

<p>Massivga topshiriq: $a = [1 \ 2; 3 \ 4; 5 \ 6];$</p>	 <pre>Command Window >> a = [1 2; 3 4; 5 6] a = 1 2 3 4 5 6</pre>
<p>Elementlarga kirish:</p>	 <pre>>> a(3,1) ans = 5 >> a(1,3) ??? Index exceeds matrix dimensions.</pre>

2.11-jadval.Ustun vektori va satr vektori

<ul style="list-style-type: none"> •Matritsaning har qanday satr va ustuni – vektordir; Satrlar bo'yiga va eniga - satr Vektori(razmer $1 \times n$); •Ustunlar bo'yiga va eniga - ustun Vektori (razmeri $n \times 1$); •Ustun vektorini sozlash: Har qanday turdagi vektor uzunligi uchun qo'llaniladigan funksiya 	 <pre>>> c = [1; 2; 3] c = 1 2 3 >> c = [1 2 3] c = 1 2 3</pre>
---	---

<p>Matrisaning hajmi va o'lchami. Massivning o'lchami ndims(A) bilan topiladi.</p>	<pre>>> a = [1 2 3; 4 5 6] a = 1 2 3 4 5 6 >> ndims(a) ans = 2</pre>
<p>Massiv hajmi - size (A) bilan topiladi.</p>	<pre>>> size(a) ans = 2 3 >> [m n] = size(a) m = 2 n = 3</pre>
<p>Bog'lash. Ikki matrisini ko'rib chiqaylik</p>	<pre>>> a = [1 2 3; 4 5 6] a = 1 2 3 4 5 6 >> b = [4 6 7; 0 9 5] b = 4 6 7 0 9 5</pre>

"Ustun" keyin "sitr" ko'rinishida bog'lash:

```
>> c = [a; b]

c =

     1     2     3
     4     5     6
     4     6     7
     0     9     5

>> c = [a b]

c =

     1     2     3     4     6     7
     4     5     6     0     9     5
```

O'lchovlar noto'g'ri kelganligi sababli xato xabar:

```
>> c = [c; a]

??? Error using ==> vertcat
CAT arguments dimensions are not consistent.
```

2.7 -rasm.Xato xabar.

Chegaralari

Mos yozuvlar qiymatlari uchun vektorning mos qiymatlari chegaralaridan foydalanish mumkin.

Boshqa misollarni ko'rib chiqaylik.


```
>> a = magic(5)

a =

    17    24     1     8    15
    23     5     7    14    16
     4     6    13    20    22
    10    12    19    21     3
    11    18    25     2     9

>> a(2:3,4:5)

ans =

    14    16
    20    22
```

```
>> a = magic(5)

a =

    17    24     1     8    15
    23     5     7    14    16
     4     6    13    20    22
    10    12    19    21     3
    11    18    25     2     9

>> a(3,:)

ans =

     4     6    13    20    22

>> a(:,1)

ans =

    17
    23
     4
    10
    11
```

2.8-rasm. Misollar.

```
>> a = magic(3)

a =

     8     1     6
     3     5     7
     4     9     2

>> a(:)

ans =

     8
     3
     4
     1
     5
     9
     6
     7
     2
```

2.9-rasm.Misollar.

2.12-jadval. Vektor elementlari

<p>Har qanday vektorining elementiga kirish uchun, siz bu vazifadan ya'ni oxirida end dan foydalanishingiz mumkin.</p>	<pre>>> A = magic(5) A = 17 24 1 8 15 23 5 7 14 16 4 6 13 20 22 10 12 19 21 3 11 18 25 2 9 >> B = A(:,3:end) B = 1 8 15 7 14 16 13 20 22 19 21 3 25 2 9</pre>	
<p>Ustun va satrlarni o'chirish:</p>	<pre>>> a = magic(5) a = 17 24 1 8 15 23 5 7 14 16 4 6 13 20 22 10 12 19 21 3 11 18 25 2 9 >> a(2:3,:) = [] a = 17 24 1 8 15 10 12 19 21 3 11 18 25 2 9</pre>	<pre>>> a = magic(5) a = 17 24 1 8 15 23 5 7 14 16 4 6 13 20 22 10 12 19 21 3 11 18 25 2 9 >> a(:,3:4) = [] a = 17 24 15 23 5 16 4 6 22 10 12 3 11 18 9</pre>

O'rni
almashtiruvchi
elementlar

```
>> b = 1:3:11

b =

     1     4     7    10

>> b([4 2 1 3])

ans =

    10     4     1     7

>> a = magic(5)

a =

    17    24     1     8    15
    23     5     7    14    16
     4     6    13    20    22
    10    12    19    21     3
    11    18    25     2     9

>> a = a(:,[3 5 2 4 1])

a =

     1    15    24     8    17
     7    16     5    14    23
    13    22     6    20     4
    19     3    12    21    10
    25     9    18     2    11
```

Mustaqil ta'lim bloki

Ishdan maqsad:

Dastur imkoniyatlari;

- Oynalar bilan ishlash;
- Tizim buyruqlari;
- Buyruqlarni kiritish tartibi;
- Matematik ifodalarni shakllantirish.

Uslubiy ko'rsatmalar:

1. MATLAB — bu vaqt sinovidan o'tgan matematik hisoblarni avtomatlashtirish tizimlaridan biridir.

2. MATLAB asosan quyidagi vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi:

- matematik hisoblashlar;

- algoritmlarni yaratish;
- modellash;
- ma'lumotlarni tahlil, tadqiq qilish va vizuallashtirish;
- ilmiy va injenerlik grafikasi;
- ilovalarni ishlab chiqish;
- grafik ishlanmalarni yaratish va boshqalar.

3. MATLAB tizimini ishga tushirilgandan so'ng ekranda quyidagi to'rtta oyna paydo bo'ladi:

- Command Window (buyruqlar oynasi) – eng ko'p ishlatiladigan oyna bo'lib, unda foydalanuvchining buyruqlari bevosita bajariladi va natijalar keltiriladi.

- Command History (buyruqlar tarixi) – foydalanuvchining barcha buyruqlari saqlanadi.

- Workspace (ishchi fazo) – foydalanuvchi tomonidan buyruqlar oynasiga kiritilgan barcha o'zgaruvchilarni aks ettiradi.

- Surrent Directory (joriy katalog) – provodnik dasturiga o'xshash funktsiyani bajaradi.

4. MATLAB matematik hisoblash tizimida masalalarni yechish tartibi kerakli buyruqlarni satr ko'rinishida berish orqali amalga oshiriladi. Dasturning keyingi versiyalarida bir necha buyruqlarni menyu qismi yoki uskunar paneli orqali ham amalga oshirish mumkin.

5. Dasturda buyruqlar foydalanuvchi tomonidan beriladi. Buyruqlar esa m-fayl ko'rinishida saqlanib, chaqirilgandagina ishga tushadi. Dasturning ishlash prinsipi "savol berib, javobini ol" tartibiga moslashgan. Buyruqlar klaviatura orqali kiritilib, natija Enter tugmasi bosish bilan olinadi.

6. Tizimda satrli buyruqlar kiritishning asosiy qoidasi ">>" – katta matematik ifodalaridan keyin yozishdir. Kiritilgan matematik ifodaning qiymati Enter tugmasi bosilishi bilan ans o'zgaruvchisiga natijaviy qiymat yuklatiladi. Tizimda o'zgaruvchilarga qiymatlar "q" – tenglik belgisi orqali beriladi.

7. O'zgaruvchilar sifatida ixtiyoriy xarfdan foydalanish mumkin. Agar bir necha ifodadan ketma-ket emas, umumiy tarzda natija olish kerak bo'lsa, u holda ifodalardan keyin ";" –nuqtali vergul qo'yish kerak.

8. Berilgan matematik ifoda bir satrga sig'masa keyinga satrga "..." – ko'p nuqta orqali o'tish mumkin. Shunda, satrlarni yagona ifoda sifatida aniqlaydi va bajaradi.

```

Command Window
>> a=2;
>> b=3;
>> c=a+b
c =
     5
fx >>

```

2.10 -rasm. Matematik ifoda.

9. Buyruq – MATLAB tizimining standart joydagi ob’yekti bo‘lib, quyidagicha formatga ega:

<buyruq><mazmuni>, bu yerda: <buyruq> - buyruqning standart nomi; <mazmuni> - har bir buyruq uchun aniqlashtiriladi va keltirilmasligi ham mumkin.

10. O‘zlashtirish operatori – ikki turga bo‘linadi.

1- Oshkor o‘zlashtirish operatori:

<o ‘zgaruvchi nomi > = <ifoda>.

2-Oshkormas o‘zgartirish operatori:

Ans

11. “↑ ↓” – pastga va yuqoriga tugmalari oldin berilgan buyruqlarni aniqlaydi va bajaradi.

12. Aniqob’yekt bo‘yicha ma’lumotnoma olish uchun quyidagi buyruqlardan foydalaniladi: “»helpnom” yoki“»doc nom”, bu yerda “nom” —ma’lumotnomasi zarur bo‘lgan ob’yektning nomi.

```

Command Window
>> doc sin
>> help timefun
Time and dates.

Current date and time.
    now          - Current date and time as date number.
    date         - Current date as date string.
    clock       - Current date and time as date vector.

Basic functions.
    datenum     - Serial date number.
    datestr    - String representation of date.
    datevec    - Date components.

```

2.11-rasm. Matematik ifoda.


13. Konstantalar – MATLAB tilining hisoblash jarayonida o‘zgarmas qiymatga ega ob’yekti bo‘lib, quyidagilarga bo‘linadi:

1.Sonli konstantalar:

- butun;
- haqiqiy;
- kompleks.

2.Mantiqiy konstantalar (True (rost) yoki False(yolg‘on))

3. Simvol (belgi) ko‘rinishdagi konstantalar (apostrof ichiga olingan belgilarning ixtiyoriy ketma-ketligi).



```
Command Window
>> 0.2
ans =
    0.2000
>> -3
ans =
    -3
>> 2j
ans =
    0 + 2.0000i
>> 2-3i
ans =
    2.0000 - 3.0000i
fx >> |
```

2.12 -rasm. Simvol ko‘rinishdagi konstantalar

14. O‘zgaruvchilar– MATLABning hisoblash jarayonida o‘z qiymatini o‘zgartiruvchi ob’yektlardir. O‘zgaruvchilar oddiy o‘zgaruvchilar va massivlarga bo‘linadi.

15. Funksiyalar – ichki va tashki funksiyalarga ajraladi. Ichki funksiya – MATLAB tilining standart nomi ob’ekti bo‘lib, yopiq qavslar ichidagi parametrlar asosida amallar bajariladi.

16. Asosiy matematik funksiyalar ro‘yhati bilan help elfun buyrug‘i yordamida tanishish mumkin.

17. Ifodalar – MATLAB tilining ob’yekti bo‘lib, operatsiyalar orqali o‘zgaraslar, o‘zgaruvchilar va funksiyalarning ma’noga ega bo‘lgan to‘plamidir. Ifodalar arifmetik, mantiqiy va simvolli kabi turlarga bo‘linadi.

18. Operatsiyalar – matritsalarini qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, darajaga ko‘tarish, o‘ng va chap bo‘lish va x.k.lar bo‘lib, ular haqidagi ma’lumotlarni help ops buyrug‘i orqali olish mumkin.

Topshiriqlar:

- berilgan ifodani hisoblang;
- natijani solishtiring.

2.13-jadval. Variantlar

№	Ifoda	Qiymatlar	Natija
1.	$3m^2 + \sqrt[3]{2n^2}$	$m = -\frac{14}{5}, n = \operatorname{tg} \frac{\pi}{8}$	23,27
2.	$\frac{4}{3}l^3 \sin^2 \frac{\alpha}{2} \sqrt{\cos \alpha}$	$l = 1,7 \cdot 10^3, \alpha = 18^\circ$	1. 5633e+008
3.	$\frac{\sqrt{a\sqrt{b}}}{\sqrt[3]{\operatorname{tg} \alpha}}$	$a = 1,5, b = 0,8, \alpha = 61^\circ$	1. 0498e+000
4.	$\frac{3a^2 \sqrt{6,8 \cdot (a-b)}}{4(a+b)^3}$	$a = 4,13 \cdot 10^{-1}, b = \frac{1}{261}$	2. 9464e+000
5.	$\frac{c^3}{6} \cos \frac{\alpha}{2} \sqrt{\sin \alpha}$	$c = \lg 2,38, \alpha = \frac{\pi}{5}$	3. 4657e-004
6.	$\sqrt{\frac{n^3}{16,3 \sin \alpha \sin 2\alpha}}$	$n = 3,1516 \cdot 10^{-2}, \alpha = 5^\circ$	1. 1265e-002
7.	$5 \sin 35^\circ \sqrt{\frac{S^3 \cos 36^\circ}{\pi^3 \operatorname{tg} \alpha}}$	$S = \ln 3, \alpha = 44^\circ$	5. 4283e-001
8.	$ \lg(1 + \sin \alpha) + \ln(1 - \sin \beta) $	$\alpha = \frac{3\pi}{7}, \beta = 83^\circ$	4. 6035e+000
9.	$\sqrt[3]{\sin^2(\alpha + \beta) - \sin^2(\alpha - \beta)}$	$\alpha = \frac{5}{7}\pi, \beta = 0,3\pi$	4. 8756e-001
10.	$(\log_a(b + 1,4))^{-3/4}$	$a = 3,56, b = e^{0,316}$	1. 1790e+000
11.	$3\left(p^{-2/3} + q^{-1/2}\right)\sqrt[3]{pq}$	$p = \ln 3, q = \lg 3$	5. 7737e+000
12.	$\frac{2}{3}m\sqrt{m\sqrt[3]{m^4\sqrt{m}}}$	$m = 3,6485 \cdot 10^2$	1. 5880e+004
13.	$\frac{8}{3}S\sqrt{\frac{S}{\pi}} \sin^6 \frac{\alpha}{2}$	$S = e^{1,11}, \alpha = \frac{7}{11}\pi$	2. 8187e+000

14.	$2\sqrt{\frac{F}{\pi}} \operatorname{tg} \alpha \sin^2 \frac{\alpha}{2}$	$F = \frac{1}{0,03}, \alpha = \frac{5}{7}\pi$	-6. 6313e+000
15.	$\frac{1}{12} \cdot \frac{m^3 \cos \alpha}{(\sin \alpha + \cos \alpha)^3}$	$m = -20,1, \alpha = 20^\circ$	-3. 0201e+002

Nazorat savollari:

1. MATLAB tizimi imkoniyatlari
2. MATLAB tizimi va uni ishga tushirish
3. MATLAB tizimida ishlash rejimlari
4. MATLAB ning oynalari va ularning vazifalari
5. MATLAB ning ob'yektlari
6. MATLAB tizimida xaqiqiy sonlarning berilishi
7. Ans tizim o'zgaruvchisining vazifasi
8. MATLABning ichki funksiyalari
9. MATLAB da o'zgarmaslar, o'zgaruvchilar, ifodalar, kompleks sonlar bilan ishlash

2.2.1. MATLAB tizimida matritsalar algebrasi

Matritsaning mahsus ko'rinishlarini tuzish.

Matritsalarda ishlash uchun quyidagi funksiyalardan foydalanish qulay hisoblanadi:

- **ones** – elementlari birga teng matritsa tuzish;
- **zeros** – elementlari nolga teng matritsa tuzish;
- **eye** – birlik kvadrat matritsa tuzish;
- **rand** – [0, 1] oralig'ida tasodifiy taqsimlangan raqamlar majmuasini shakllantirish;
- **randn** – [0, 1] oralig'ida tasodifiy normal taqsimlangan raqamlar majmuasini shakllantirish;
- **magic** – kvadrat matritsa tuzish;
- **pascal** – kvadrat paskal matritsasini tuzish;
- **diag** – matritsaning diagonaliva boshqalar.

Matritsaning mahsus ko'rinishlari

• Birlik kvadrat matritsaning asosiy sintaksis funksiyalarini tuzishni misollarda ko'rib chiqamiz(eye):

- **eye(m)** – birlik kvadrat matritsaning o'lchamlarini tuzilishi [m, m]

• **eye(m, n)** – birlik kvadrat matritsaning o‘lchamlarini tuzilishi [m, n]

```
>> a = eye(4)
a =
     1     0     0     0
     0     1     0     0
     0     0     1     0
     0     0     0     1

>> a = eye(4, 6)
a =
     1     0     0     0     0     0
     0     1     0     0     0     0
     0     0     1     0     0     0
     0     0     0     1     0     0
```

2.13 -rasm. Matritsaning mahsus ko‘rinishlari

```
>> z = zeros(4)
z =
     0     0     0     0
     0     0     0     0
     0     0     0     0
     0     0     0     0

>> z = zeros(3, 4)
z =
     0     0     0     0
     0     0     0     0
     0     0     0     0

>> z = ones(5)
z =
     1     1     1     1     1
     1     1     1     1     1
     1     1     1     1     1
     1     1     1     1     1
     1     1     1     1     1

>> z = ones(5, 3) * 7
z =
     7     7     7
     7     7     7
     7     7     7
     7     7     7
     7     7     7
```

```

>> rand(4)

ans =

    0.9355    0.0579    0.1389    0.2722
    0.9169    0.3529    0.2028    0.1988
    0.4103    0.8132    0.1987    0.0153
    0.8936    0.0099    0.6038    0.7468

>> randn(4)

ans =

   -0.4326   -1.1465    0.3273   -0.5883
   -1.6656    1.1909    0.1746    2.1832
    0.1253    1.1892   -0.1867   -0.1364
    0.2877   -0.0376    0.7258    0.1139

>> magic(3)

ans =

     8     1     6
     3     5     7
     4     9     2

>> pascal(6)

ans =

     1     1     1     1     1     1
     1     2     3     4     5     6
     1     3     6    10    15    21
     1     4    10    20    35    56
     1     5    15    35    70   126
     1     6    21    56   126   252

```

2.14 -rasm. Matritsaning mahsus ko‘rinishlari

- **diag** - funksiyasi: matritsalarining diagonal bilan ishlash:
 - Nol emas elementlarni diagonalda joylashishi
- Sintaksis:
 - $\mathbf{X} = \mathbf{diag}(\mathbf{v})$ – matritsaning asosiy diagonalida x elementlari joylashishi vektorda esa \mathbf{v}
